Avvalgi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra, Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilar edi. Prezident taqdim etilgan nomzodni o'n kun ichida Oliy Majlis palatalarining ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun kiritgan. Nomzod uning uchun tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tomonidan ovoz berilgan

taqdirda tasdiqlangan hisoblangan (Republic of Uzbekistan, 1992).

2019-yildagi (oʻz kuchini yoʻqotgan) “Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi toʻgʻrisida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan, ovoz berish chogʻida nomzod biror-bir palatada koʻpchilik ovozni ololmasa, Prezident fraksiyalar bilan qoʻshimcha maslahatlashuvlar oʻtkazib, nomzodni yana bir marta taqdim etish huquqiga ega boʻlgan. Nomzod ikkinchi marta rad etilgan taqdirda esa Prezident Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlab, Oliy Majlisni tarqatib yuborishi koʻzda tutilgan edi (Republic of Uzbekistan, 2019).

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasida esa quyidagi qoida mustahkamlandi: “Bosh vazir nomzodi Oliy Majlis palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan va organlari shakllangandan soʻng bir oy ichida yoki Bosh vazir lavozimidan ozod etilganidan keyin yoxud Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi isteʼfoga chiqqanidan keyin bir oy ichida Qonunchilik palatasi koʻrib chiqishi va maʼqullashi uchun Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng taqdim etiladi” (Republic of Uzbekistan, 2023).

Qonunchilik palatasi nomzodni oʻn kun ichida koʻrib chiqadi. Uni maʼqullash uchun deputatlar umumiy sonining yarmidan koʻpining ovozi talab qilinadi (Republic of Uzbekistan, 2023). Agar ovoz berish chogʻida nomzod deputatlar umumiy sonining yarmidan koʻpining ovozini toʻplay olmagan boʻlsa, Prezident barcha fraksiyalar bilan qoʻshimcha maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng Bosh vazir lavozimiga nomzodni yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega (Republic of Uzbekistan, 2003). Nomzod uch marta rad etilgan taqdirda, Prezident Bosh vazirni tayinlash hamda palatani tarqatib yuborish huquqiga ega boʻladi (Republic of Uzbekistan, 2023). Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasi tomonidan maʼqullanganidan soʻng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi (Republic of Uzbekistan, 2024).

Mazkur institutda toʻrt prinsipial oʻzgarishni kuzatish mumkin:

birinchidan, avvalgi tartibda nomzod saylovda gʻolib boʻlgan siyosiy partiya (yoki partiyalar) tomonidan koʻrsatilgan boʻlsa, endilikda Prezident tomonidan barcha fraksiyalar bilan maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng aniqlanadi. Bu oʻzgarish Hukumatni shakllantirishning “partiya-dominant” modelidan “prezident-arbitr” modeliga oʻtganligini anglatadi, yaʼni davlat rahbari endi parlamentdagi barcha siyosiy kuchlar manfaatlarini hisobga olishi lozim boʻladi;

ikkinchidan, nomzodni tasdiqlash bikameral (ikki palatali) tartibdan mono-kameral (bir palatali) tartibga oʻtkazildi. Natijada demokratik legitimlik manbayi aniqlashtirildi, yaʼni ijro hokimiyati endi toʻgʻridan toʻgʻri meʼyorga muvofiq, xalq tomonidan toʻgʻridan toʻgʻri saylanadigan quyi palata oldida masʼul va javobgar boʻladi;

uchinchidan, rad etish chegarasi ikki martadan uch martaga oshirildi. Bu nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham oʻzgarish boʻlib, Qonunchilik palatasiga Prezident taqdim etgan nomzodni kengroq muhokama qilish, fraksiyalar bilan haqiqiy siyosiy muloqot yuritish va kompromiss topish imkonini beradi;

toʻrtinchidan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasini tarqatib yuborish majburiyat (“tayinlaydi va tarqatib yuboradi”) sifatida emas (Republic of Uzbekistan, 1992), balki Prezidentning huquqi (“tarqatib yuborishga haqli”) sifatida belgilandi (Republic of Uzbekistan, 2023). Bu Prezidentni avtomatik jarayondan xalos etib, unga chinakam arbitrlik funksiyasini bajarish imkoniyatini beradi.

O. Kojevnikov va A. Nechkinning qayd etilishicha, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga aʼzo boʻlgan (Oʻzbekiston ushbu tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega) beshta davlatdan toʻrttasida davlat boshligʻi Hukumat tarkibini shakllantirish masalasida hal qiluvchi taʼsirga ega boʻlib, parlamentning ishtiroki esa Prezident taklif qilgan nomzodlarni maʼqullash yoki tasdiqlash bilan cheklangan. Shu maʼnoda, Oʻzbekistonning parlamentga kengaytirilgan rol beruvchi yondashuvni tanlagani YII makonidagi umumiy tendensiyadan farq qilishini koʻrsatadi (Kozhevnikov & Nechkin, 2023, p. 95).

Germaniyada Federal kanslerni Prezident taklifiga binoan Bundestag saylaydi. Basharti taklif etilgan nomzod koʻpchilik ovozini ololmasa, Bundestag oʻn toʻrt kun ichida oʻz tashabbusi bilan nomzod koʻrsatish va uni saylash huquqiga ega boʻladi (Federal Republic of Germany, 1949). Italiyada Prezident Bosh vazirni tayinlasa-da, Hu-

kumat o‘n kun ichida har ikki palatadan ishonch votumini olishi shart (Italian Republic, 1947). Fransiya Konstitutsiyasi Prezidentga Bosh vazirni mustaqil tayinlash vakolatini beradi va parlament tasdig‘ini talab qilmaydi (French Republic, 1958). Agar Prezident va parlament ko‘pchiligi bir siyosiy partiyaga mansub bo‘lsa, Hukumat tarkibini shakllantirishda Prezident asosiy rol o‘ynaydi, aks holda Prezident bu masalada parlament ko‘pchiligi bilan amalda hisoblashishga majbur bo‘ladi.

O‘zbekistonning yangi modeli Germaniya va Italiyaga xos bo‘lgan “parlament ma’qullovi yoki investiturasi” an’anasiga yaqinlashadi. T. Bergman, S. Ersson va J. Xellstryom ushbu an’anani tahlil qilib, bunday tartib “koalitsiya shakllantirish ehtimolini sezilarli oshiradi” hamda Hukumatning parlament oldidagi dastlabki javobgarligini mustahkamlaydi, deb ta’kidlaydi (Bergman et al., 2015).

Jahon tajribasida Hukumat rahbarini tayinlashda Prezidentning rolini ikkita holatga ajratish mumkin. Birinchisi – parlament saylovi natijalariga ko‘ra mutlaq ko‘pchilik shakllangangan holat bo‘lib, unda Prezident Bosh vazir nomzodi yuzasidan oldindan ma’lum natijani shunchaki rasman tasdiqlaydi, ya’ni S. Grimaldining (2023) ta’rifiga ko‘ra, bu “prezident vakolati emas, balki atributsiyasi, chunki uning irodasi namoyon bo‘lishiga imkoniyat yo‘q”. Ikkinchi holatda esa saylov natijalari noaniq bo‘lib, Bosh vazirni tayinlash haqiqiy vakolatga aylanadi, ya’ni Prezident mazmunli tanlov qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Albatta, bu holat prezidentlik va prezidentlik-parlamentar boshqaruv shaklidagi davlatlarga xos emas.

O‘zbekiston sharoitida Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan barcha fraksiyalar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng aniqlanadi. Ya’ni davlat rahbarining tanlov imkoniyati saqlanib qoladi, bu esa tayinlashni S. Grimaldi tushunchasidagi “atributsiya” emas, balki “haqiqiy vakolat” sifatida namoyon etadi hamda Prezidentning arbitrajlik rolini mustahkamlaydi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibini shakllantirishga kelsak, bu jarayonda ham tubdan o‘zgarish amalga oshirildi. Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazirning Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin kiritilgan taqdimnomasiga binoan Prezident tomonidan tasdiqlangan, ya’ni Vazirlar Mahkamasining tarkibi yuzasidan hal qiluvchi tashabbuskor Bosh vazir hisoblangan (Republic of Uzbekistan, 1992).

Konstitutsiyaviy islohotlardan so‘ng vaziyat o‘zgardi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 7-moddasiga ko‘ra, “Vazirlar Mahkamasining a’zolari ularning nomzodlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi” (Republic of Uzbekistan, 2024).

Har bir vazirlik va idora nomzod Bosh vazirning nomzodi ko‘rib chiqilayotganda Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturiga muvofiq o‘z harakatlar rejasini taqdim etadi. Ushbu reja erishilishi lozim bo‘lgan istiqbolli maqsadli ko‘rsatkich va vazifalarni, ularni amalga oshirishga qaratilgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasini o‘z ichiga oladi (Republic of Uzbekistan, 2003).

Hukumat tarkibini shakllantirishda quyidagi o‘zgarishlar yuz berdi:

birinchidan, Hukumat tarkibini taqdim etish vakolati Bosh vazirdan Prezidentga o‘tdi. Bu holat Vazirlar Mahkamasini shakllantirish jarayonini Prezident qo‘lida markazlashtirib, Bosh vazir endi mustaqil kadrlar siyosatini yurituvchi rahbar emas, balki Prezident siyosatining ijrochisi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalish O. Kojevnikov va A. Nechkin qayd etgan YII makonidagi umumiy tendensiya bilan mos keladi (Kozhevnikov & Nechkin, 2023);

ikkinchidan, nomzodlarni dastlabki ko‘rib chiqish mas’ul qo‘mita hamda siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu shunchaki rasmiy taomil emas, balki vazir nomzodi avval mas’ul qo‘mitada kasbiy-mutaxassislik nuqtayi nazaridan, so‘ngra fraksiyalarda siyosiy nuqtayi nazardan baholanishini ta’minlaydi;

uchinchidan, har bir vazir nomzodiga o‘z harakatlar rejasini taqdim etish majburiyati yuklatildi. Mazkur mexanizm Hukumat a’zolarining aniq soha uchun shaxsiy javobgarligini huquqiy mustahkamlab, Vazirlar Mahkamasi faoliyatining soha va tarmoqlar kesimidagi samaradorligini

monitoring qilish uchun poydevor yaratadi. Xorijiy tajribada bunday harakatlar rejasi amaliyoti keng tarqalmagani O'zbekiston modelining o'ziga xos jihati hisoblanadi.

M. Viyeyra va T. Silvaning qiyosiy tadqiqotida vazirlarni erkin tayinlash va ozod qilish vakolati prezidentlik boshqaruv tizimlarida (taxminan 55 foiz) ko'proq uchrashi qayd etiladi (Vieira & Silva, 2018). Germaniyada Federal vazirlar Kanslerning taklifiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi va parlament ularni alohida tasdiqlamaydi (Federal Republic of Germany, 1949). Italiyada ham vazirlar Bosh vazirning taklifiga ko'ra Prezident tomonidan tayinlanadi (Italian Republic, 1947). O'zbekistonning yangi modeli esa vazirlikka nomzodlarni Qonunchilik palatasida qo'mita va fraksiyalardagi dastlabki muhokamadan o'tkazish hamda yalpi majlisda ma'qullash orqali parlament ishtirokini sezilarli darajada kuchaytiradi.

O. Protsikning ta'kidlashiga ko'ra, yarim prezidentlik tizimida Vazirlar Mahkamasi "Prezident hamda parlamentga bo'ysunuvchi agent" sifatida namoyon bo'ladi, bu esa kadrlar siyosatida institutsional ziddiyatlarga zamin yaratishi mumkin (Protsyk, 2006). O'zbekistonda vazir nomzodini taqdim etish vakolati Prezidentga berilgan bo'lsa-da, uni ma'qullash Qonunchilik palatasiga yuklangani ayni shu ikki subyekt o'rtasida muvozanat o'rnatishga qaratilgan yechim sifatida baholanishi mumkin. Bunday tartib vazirlarning ham Prezident, ham Qonunchilik palatasi oldidagi dual (ikkiyoqlama) hisobdorligini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Vazirlar Mahkamasining iste'fosi instituti ham sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasida Bosh vazirni lavozimidan ozod etishning faqat bitta asosi – ishonchsizlik votumi nazarda tutilgan edi (Republic of Uzbekistan, 1992).

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi 2019-yildagi Qonunning 7-moddasida esa beshta asos belgilangan edi: o'z arizasiga binoan, vazifalarni bajarish imkonsizligi, ixtiloflar kelib chiqqani yoki yuqori turuvchi normativ-huquqiy hujjatlarga zid qarorlar qabul qilingani, fraksiyalar tashabbusi hamda ishonchsizlik votumi (Republic of Uzbekistan, 2019).

Fraksiyalar tashabbusi bo'yicha Bosh vazirni lavozimidan ozod etish ham bikameral (ikki palatali) tartibda amalga oshirilar, ya'ni har ikkala palatada deputat va senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidagi ko'pchilik ovozi talab qilinar edi (Republic of Uzbekistan, 2019). Shu ma'noda, avvalgi tartib mohiyatan Senatga "veto" qo'yish imkoniyatini bergan edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Bosh vazirni lavozimdan ozod etishning asosi sifatida fraksiyalar tashabbusi ham kiritildi (Republic of Uzbekistan, 2023), yuqorida sanab o'tilgan beshta asos o'zgarishsiz "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlandi (Republic of Uzbekistan, 2024). Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o'zida Hukumatning iste'foga chiqishiga sabab bo'lishi to'g'risidagi qoida ham o'z kuchida qoldi.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 118-moddasida Prezident o'z tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasini yoki uning muayyan a'zosini iste'foga chiqarishga, Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi a'zosining o'z faoliyatiga oid masalalar yuzasidan hisobotini eshitishga hamda hisobot yakunlariga ko'ra uni iste'foga chiqarish to'g'risidagi taklifni Prezidentga ko'rib chiqish uchun kiritishga haqli ekanligi belgilab qo'yildi (Republic of Uzbekistan, 2023).

Qiyosiy tahlil quyidagi yangiliklarni namoyon etdi:

birinchidan, fraksiyalar tashabbusi bo'yicha Bosh vazirni lavozimdan ozod etish monokameral (bir palatali) tartibga o'tkazildi: avval Oliy Majlis palatalari a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidagi ko'pchilik ovozi talab qilingan bo'lsa, yangi tartibda faqat Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining shuncha miqdordagi ovozi yetarlidir. Bu Hukumatning xalq tomonidan bevosita saylangan deputatlar oldidagi mas'uliyatini oshirib, parlament ko'pchiligiga tayangan siyosiy partiyalarga amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ta'sirchan vositani taqdim etadi;

ikkinchidan, Prezidentning o'z tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasini yoki uning muayyan a'zosini iste'foga chiqarish vakolati to'g'ridan to'g'ri mustahkamlandi. Bu holat O'zbekiston modelining o'ziga xosligini ko'rsatib, ijro etuvchi hokimiyatning parlament oldida javobgarligini kuchaytirish bilan bir qatorda, davlat rahbarining ushbu hokimiyat tarmog'iga nisbatan

ta'sirchanligini saqlab qoladi, ya'ni o'zaro tiyib turish va muvozanat tamoyiliga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi;

uchinchidan, parlament tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi a'zosini, ya'ni alohida vazirni iste'foga chiqarish mexanizmi joriy etildi. I. Xamedov bu normani parlament nazoratining muhim chorasi sifatida qayd etib, u "Hukumat a'zolarining xalq deputatlari oldidagi hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi" deb ta'kidlaydi. Bu mexanizm ishonchsizlik votumidan farqli ravishda butun Hukumatni emas, balki aniq vazirni nishonga olgani bois parlament nazoratining nozikroq va maqsadli vositasi hisoblanadi (Khamedov, 2024).

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy islohotlarga qaramasdan saqlanib qolgan "Amaldagi Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi" degan qoida ham muayyan ma'noda Vazirlar Mahkamasining iste'fosi masalasiga daxldordir. Jahon amaliyotida "avtomatik iste'fo" (*automatic resignation*) deb nomlanuvchi ushbu mexanizm Hukumatning parlament oldidagi javobgarligining asosiy omillaridan biri hisoblansa-da, amaliyotda ramziy ma'noga ega hisoblanadi. Chunki "Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi shakllantirilguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq o'z faoliyatini davom ettirib turadi" (Republic of Uzbekistan, 2023). Bunday qoida parlamentar respublikalar (Germaniya, Italiya va b.)da ham mavjud bo'lib, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saqlab qolinishi parlamentarizm tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajribaga murojaat qilinsa, Rossiya Konstitutsiyasi Hukumatni iste'foga chiqarish bo'yicha Prezidentga keng vakolatlar beradi va unda iste'fo asoslari batafsil sanab o'tilmagan (Russian Federation, 1993), Qozog'iston Konstitutsiyasi ham ushbu yondashuvga yaqin keladi (Republic of Kazakhstan, 1995). Fransiyada esa Prezident Bosh vazirning arizasiga ko'ra Hukumat vakolatlarini tugatadi (French Republic, 1958). O'zbekiston modeli esa fraksiyalar tashabbusi orqali parlament nazoratini hamda Prezident vakolati orqali arbitraj funksiyasini o'zaro uyg'unlashtiradi.

T. Sedelius va S. Bergland tasnifiga ko'ra, agar Hukumatni iste'foga chiqarish vakolati faqat parlamentga tegishli bo'lsa – bu "premyer-prezident", agar ushbu vakolat ham Prezidentga, ham parlamentga tegishli bo'lsa – "prezident-parlamentar" tizim hisoblanadi (Sedelius & Bergland, 2012). R. Elji ham yarim prezidentlikning ushbu ikki subtipini farqlab, "premyer-prezident" subtipida Bosh vazir va Hukumat faqat parlament oldida jamoaviy mas'ul bo'lishini ta'kidlaydi (Elgie, 2012). O'zbekiston modeli ushbu tasnifda oraliq mavqeni egallaydi: Bosh vazirni iste'foga chiqarish ham Qonunchilik palatasi tashabbusi, ham Prezidentning shaxsiy tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu holat O'zbekiston modelini sof "premyer-prezident" subtipidan ajratib turuvchi va dual ijro etuvchi hokimiyatning saqlanib qolayotganini ko'rsatuvchi belgidir.

Ishonchsizlik votumiga kelsak, ushbu institut O'zbekiston Konstitutsiyasiga 2014-yilda kiritilgan bo'lib, so'nggi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida muayyan o'zgarishlarga uchradi.

Avvalgi tartibda ishonchsizlik votumi "bikameral muhokama – bikameral qaror qabul qilish" formulasiga asoslangan edi, ya'ni "Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishincha Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi" (Republic of Uzbekistan, 1992). Shu ma'noda, har bir palatada alohida 2/3 ko'pchilik ovozining talab etilishi ishonchsizlik votumini qo'llashni amalda va huquqiy jihatdan juda murakkablashtirar edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 119-moddasida ushbu tartib sezilarli darajada soddalashtirildi: "Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan Prezident nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha Qonunchilik palatasining muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi, agar Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi unga ovoz bersa, qabul qilingan hisoblanadi" (Republic of Uzbekistan, 2023).

Qiyosiy-huquqiy tahlillar quyidagi muhim xulosalarni namoyon etadi:

birinchidan, monokameral tartibga o'tish O'zbekiston davlat boshqaruvi shaklining konstitutsiyaviy evolyutsiyasini ifodalaydi. Avval Senat ishonchsizlik votumiga nisbatan real "veto" imkoniyatiga ega edi, ya'ni u 2/3 ko'pchilik ovozni hosil qilmasa, votum qabul qilinmas edi. Yangi tartibda ushbu to'siq bartaraf etilib, Hukumat-

ning xalq tomonidan bevosita saylangan quyi palata oldidagi javobgarligi mustahkamlandi;

ikkinchidan, muhokama qilish shakli oʻzgardi. Avvalgi tartibda palatalarning qoʻshma majlisi talab qilingan boʻlsa, yangi tartibda muhokama faqat Qonunchilik palatasida amalga oshiriladi. Spiker jarayonni oʻz institutsional muhitida olib boradi, bu esa siyosiy jarayonni parlament koʻpchiligi qoʻlida mujassamlashtiradi;

uchinchidan, ishonchsizlik votumini qabul qilish uchun deputatlar umumiy sonining 2/3 qismi ovoz talab etilishi yuqori mezonligicha qolsa-da, bunda qaror qabul qilishda qatnashuvchi subyektlar doirasi va ishtirokchilar soni keskin qisqardi. Bu holat bir tomondan, Vazirlar Mahkamasi barqarorligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ishonchsizlik votumini real va qoʻllanishi mumkin boʻlgan ta'sirchan vosita sifatida saqlab qoladi.

Germaniya, Polsha va Rossiyada ham ishonchsizlik votumini bildirish faqat parlament quyi palatasining vakolatiga kiradi (Federal Republic of Germany, 1949; Republic of Poland, 1997; Russian Federation, 1993). Qabul qilish uchun talab etiladigan ovozlar miqdoriga koʻra, Avstriya, Rossiya va Qozogʻistonda tegishli palatalarning deputatlari umumiy sonining oddiy koʻpchiligi, Germaniya hamda Polshada esa mutlaq koʻpchiligi (yarmidan koʻpi) talab etiladi (Republic of Austria, 1920; Russian Federation, 1993; Republic of Kazakhstan, 1995; Federal Republic of Germany, 1949; Republic of Poland, 1997). Ushbu yuqori mezon (2/3 qism ovoz) Oʻzbekistonni MDH davlatlari orasida ishonchsizlik votumini qabul qilish uchun eng yuqori kvorum chegarasini belgilagan davlatga aylantirdi.

Oʻzbekiston modelidan farqli ravishda, Rossiyada ishonchsizlik votumi qabul qilingan taqdirda ham Prezident Hukumatni iste'foga chiqarish majburiyatini olmaydi, aksincha parlament qaroriga qoʻshilmasligi va uni rad etishi mumkin (Russian Federation, 1993). Oʻzbekistonda esa ishonchsizlik votumi qabul qilingach, Prezident Bosh vazirni lavozimdan ozod etadi va ushbu qaror orqali butun Vazirlar Mahkamasi tarkibi iste'foga chiqadi. Germaniya, Polshada esa "konstruktiv ishonchsizlik votumi" instituti qoʻllanadi. Ya'ni parlament amaldagi Hukumatga (yoki uning rahbariga) ishonchsizlik bildirish bilan bir vaqtning oʻzida yangi Bosh vazir nomzodini ham saylashi shart boʻlib, bu tizim Hukumat inqirozi va siyosiy beqarorlikning oldini olishga xizmat qiladi (Federal Republic of Germany, 1949; Republic of Poland, 1997).

M. Friman ishonchsizlik votumini "parlamentar tizimda ijro hokimiyati rahbarligini oʻzgartirishning nisbatan moʻtadil va amalda qoʻllanadigan vositasi" sifatida tavsiflab, uni impichment kabi oʻta keskin choralardan afzal koʻradi (Freeman, 2000). X. Lins ta'kidlashicha, "ishonchsizlik votumi kabi moslashuvchan mexanizmlar mavjud boʻlmagan tizimlarda siyosiy nizolar osongina butun siyosiy tizim va jarayonning legitimligiga daxldor inqirozga aylanib ketishi mumkin" (Linz, 1990). S. Meynvaring esa prezidentlik tizimlarining bunday moslashuvchan mexanizmdan mahrumligini, shu bois ular siyosiy inqirozlarni hal etishda qiyinchiliklarga duch kelishini qayd etadi (Mainwaring, 1990). Ushbu ilmiy munozaralar nuqtayi nazaridan, Oʻzbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar natijasida ishonchsizlik votumi institutining saqlab qolinishi hamda uning Tartib-taomillarini Qonunchilik palatasi doirasida soddalashtirilishi parlament nazorati institutini mustahkamlash yoʻlidagi izchil qadam hisoblanadi.

**Xulosa**

Demak, Hukumatni shakllantirish va uning iste'fosiga doir masalalarning qiyosiy-huquqiy tahlili natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, Vazirlar Mahkamasi tarkibini shakllantirish va uning iste'fosi jarayonida Senatning ishtiroki bekor qilindi hamda ushbu vakolatlar bevosita xalq tomonidan saylanadigan Qonunchilik palatasiga berildi. Natijada demokratik legitimlik manbayi va Hukumatning parlament oldidagi javobgarlik manzili aniq belgilandi;

ikkinchidan, Bosh vazir hamda Vazirlar Mahkamasi a'zolari nomzodini taqdim etish vakolati Prezidentda saqlanib qolgan boʻlsa-da, ushbu jarayon barcha siyosiy partiya fraksiyalari bilan majburiy maslahatlashuv oʻtkazishni hamda Qonunchilik palatasining ma'qullovini olishni talab etadi. Bu esa ijro etuvchi hokimiyatning ham Prezident, ham parlamentning quyi palatasi oldida hisobdor boʻlgan dual javobgarlik tizimini shakllantirdi;

uchinchidan, Prezidentning oʻz shaxsiy tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasini yoki uning a'zosini iste'foga chiqarish vakolati mustahkam-

landi. Fraksiyalar tashabbusi boʻyicha Bosh vazirni lavozimdan ozod etish monokameral tartibga oʻtkazildi va alohida vazirga nisbatan Qonunchilik palatasi tashabbusi bilan isteʼfoga chiqarish instituti joriy etildi. Ushbu oʻzgarish Hukumatning dual javobgarligini ham jamoaviy, ham individual darajada aniqlashtirdi;

toʻrtinchidan, ishonchsizlik votumi instituti monokameral muhokama va qaror qabul qilish tartibiga oʻtkazilib, uning 2/3 qism ovozdan iborat yuqori boʻsagʻasi (kvorumi) saqlab qolindi. Mazkur yechim bir vaqtning oʻzida Hukumat barqarorligini taʼminlab, parlament nazoratining amalda qoʻllanishi mumkin boʻlgan real imkoniyatini saqlab qoladi.

Shu maʼnoda, yangi Oʻzbekiston modelini kuchli prezidentlik institutini parlament nazoratining kengaytirilgan vositalari bilan uygʻunlashtirgan hamda "premyer-prezident" va "prezident-parlamentar" subtiplarining xususiyatlarini oʻzida mujassam etgan gibrid model sifatida tavsiflanishi mumkin.

## REFERENCES

Bergman, T., Ersson, S., & Hellström, J. (2015). Government formation and breakdown in Western and Central Eastern Europe. *Comparative European Politics*, *13*(3), 345–375.

Bodio, T. (2025). The new Uzbekistan: An epochal challenge (reforms of 2021–2023). *Polish Political Science Yearbook*, *54*(2), 139–160.

Elgie, R. (2011). *Semi-presidentialism: Sub-types and democratic performance*. Oxford University Press. https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199585984.001.0001

Federal Republic of Germany. (1949). *Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland* [Basic Law for the Federal Republic of Germany]. Laws on the Internet. https://www.gesetze-im-internet.de/gg/

Freeman, M. (2000). Constitutional frameworks and fragile democracies: Choosing between parliamentarianism, presidentialism and semi-presidentialism. *Pace International Law Review*, *12*(2), 253–283.

French Republic. (1958). *Constitution du 4 octobre 1958* [Constitution of the French Republic]. Legifrance. https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/LEGITEXT000006071194/

Grimaldi, S. (2023). The elephant in the room in presidential politics: Informal powers in Western Europe. *Political Studies Review*, *21*(1), 21–41.

Gulyamov, S. S. (2025). Konstitutsionnye preobrazovaniya v Uzbekistane (1992–2023) [Constitutional transformations in Uzbekistan (1992–2023)]. *Bulletin of the Institute of Law of the Bashkir State University*, (4), 88–101.

Italian Republic. (1947). *Costituzione della Repubblica Italiana* [Constitution of the Italian Republic]. Senate of the Republic. https://www.senato.it/istituzione/la-costituzione

Khamedov, I. A. (2024). National and international vectors of the constitutional reform in the Republic of Uzbekistan. *European and Asian Law Review*, *7*(1), 74–80.

Kozhevnikov, O. A., & Nechkin, A. V. (2023). Osobennosti konstitutsionno-pravovogo statusa pravitelstv gosudarstv – chlenov Evraziyskogo ekonomicheskogo soyuza [Features of the constitutional and legal status of governments of the member states of the Eurasian Economic Union]. *Bulletin of St. Petersburg University. Law, 14*(1), 227–242.

Linz, J. J. (1990). The perils of presidentialism. *Journal of Democracy*, *1*(1), 51–69. https://doi.org/10.1353/jod.1990.0011

Mainwaring, S. (1990). *Presidentialism, multiparty systems, and democracy: The difficult equation* (Kellogg Institute Working Paper No. 144). University of Notre Dame.

Muhamedjanov, O. (2025). Konstitutsiya Uzbekistana v novoy redaktsii: Tseli, prioritety, osobennosti [Constitution of Uzbekistan in the new edition: Goals, priorities, and features]. *Politological studies, 77*, 408–424.

Protsyk, O. (2006). Intra-executive competition between president and prime minister: Patterns of institutional conflict and cooperation under semi-presidentialism. *Political Studies*, *54*(2), 219–244.

Republic of Austria. (1920). *Bundes-Verfassungsgesetz* [Federal Constitutional Law]. RIS. https://www.ris.bka.gv.at/Dokumente/Erv/ERV_1930_1/ERV_1930_1.pdf

Republic of Kazakhstan. (1995). *Constitution of the Republic of Kazakhstan*. Adilet. Constitution of the Republic of Kazakhstan — "Adilet" LIS

Republic of Poland. (1997). *Konstytucja Rzeczypospolitej Polskiej* [Constitution of the Republic of Poland]. ISAP. https://isap.sejm.gov.pl/isap.nsf/DocDetails.xsp?id=WDU19970780483

Republic of Uzbekistan. (1992). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/35869

Republic of Uzbekistan. (2003). *On the Rules of Procedure of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan (Law No. 522-II).* Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/-39573

Republic of Uzbekistan. (2019). *On Amendments and Addenda to the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan" (Law No. LRU-591).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/4636594?ONDATE=26.10.2024

Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/6445145

Republic of Uzbekistan. (2024). *On the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan (Constitutional Law No. LRU-982)*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/7172667

Russian Federation. (1993). *Constitution of the Russian Federation*. Official Internet Portal of Legal Information. http://www.constitution.ru/

Sedelius, T., & Berglund, S. (2012). Towards presidential rule in Ukraine: Hybrid regime dynamics under semi-presidentialism. *Baltic Journal of Law & Politics*, *5*(1), 20–45. https://reference-global.com/article/10.2478/v10076-012-0002-2

Vieira, M., & Silva, T. (2018). The power to appoint and dismiss ministers in comparative perspective. *Brazilian Political Science Review*, *12*(2), 1–25.

# YURISPRUDENSIYA


HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 4-SON

VOLUME 6 / ISSUE 4 / 2026

DOI: https://dx.doi.org10.51788/tsul.jurisprudence.6.4.

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence